"UzAssets investitsiya kompaniyasi"
aksiyadorlik jamiyatining
2026 yil 10-noyabrdagi
47-P-sonli buyrug'iga
2-Ilova

# "UzAssets investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish USLUBIYOTI

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiyot korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va "UzAssets investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan tartib-taomillar va qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring va nazorat qilish (keyingi o'rinlarda – monitoring va nazorat) Komplayens va korrupsiyaga qarshi nazorat bo'yicha mutaxassis (keyingi o'rinlarda – Komplayens xodimi) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Ushbu Uslubiyot maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**monitoring** – korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish;

**nazorat** – tanqidiy o'rganish ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va Jamiyatning ichki normativ hujjatlari buzilishining oldini olish, xodimlarning o'z faoliyatini professional va yuksak xulq-atvorda amalga oshirishi hamda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatda bo'lishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

**relevant xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqidagi xabar;

**xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxs.

Ushbu Uslubiyotdagi boshqa tushunchalar ularning qonunchilikda hamda Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki normativ hujjatlarda nazarda tutilgan ta'rifda qo'llaniladi.

4. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Jamiyat faoliyatining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik va Jamiyat ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

korrupsiyaga oid va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarini baholash va ularning samaradorligini oshirish;

kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali Jamiyatning korrupsiyaga qarshi komplayens tizimini takomillashtirish;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki normativ hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;

Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;

manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;

shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha axborot ochiqligi, davlat xaridlarining oshkoraligi, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati kabi choralar amalga oshirilganligini o‘rganish;

avvalgi o‘tkazilgan monitoring natijalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejasida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish.

## 2-bob. Monitoring va nazorat o‘tkazish yo‘nalishlari va tadbirlari

5. Jamiyatda quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha korrupsiyaga qarshi monitoring o‘tkaziladi:

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining yoki uning kontragentlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi;

Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

korrupsiyaviy xavflarni baholash monitoringi;

KPI monitoringi monitoringi;

raqamlashtirish darajasi monitoringi;

davlat xaridlari indikatorlari monitoringi;

manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalari monitoringi, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, deklaratsiya qilish, hisobga olish va tartibga solish ishlarining tashkil etilganligi;

sovg‘alar reyestri monitoringi;

xabar berish kanallari samaradorligi monitoringi;

xizmat tekshiruvlari tahlili monitoringi;

komplayens xodimi faoliyatining tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–270-son Farmoni talablarining ijro holati;

komplayens va korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘yicha ichki hujjatlarning qabul qilinganligi va amalda qo‘llanilishi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, ularni oldini olish va kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar;

korrupsiyaviy xavflarni baholash xaritalari (Risk Assessment), korrupsiyaviy xavflar reestri va chora-tadbirlar rejalarining yuritilishi;

davlat xaridlari, moliyaviy yordamlar, kadrlar bilan ishlash hamda shartnomalar tuzish jarayonlarida korrupsiyaviy xavflarni boshqarish amaliyoti;

odob-axloq qoidalariga rioya etilishi, xodimlarning korrupsiyaga qarshi cheklovlarga amal qilishi holati;

korrupsiya haqida xabar berish (ishonch telefoni, elektron pochta, maxsus kanallar) mexanizmlarining samaradorligi va kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi;

xizmat tekshiruvlari va ichki o‘rganishlar natijalari hamda ular bo‘yicha qabul qilingan choralarning ijrosi;

korrupsiyaga qarshi o‘quvlar, seminarlar va profilaktik tadbirlarning tashkil etilishi;

komplayens xodimi tomonidan rahbariyatga kiritilgan taqdimnomalar va ular ijrosining ta’minlanganligi;

korrupsiyaga qarshi sohada yuritiladigan jurnallar, reestrlar va hisobotlarning to‘g‘ri yuritilishi;

avvalgi o‘rganishlarda aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilganlik holati;

ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar (mavjud bo‘lsa).

6. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining nazorati quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat;

manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va hal etishga qaratilgan ta’sirchan choralar, shuningdek, ularga rioya etilishi ustidan nazorat.

## 3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringini o‘tkazish tartibi

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi va uning qonunchilik talablari, shuningdek xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik va korrupsiyaga

qarshi kurashishga oid boshqa talablarni (korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshiriqlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi qarorlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ko‘rsatmalari, xalqaro standartlar, xalqaro va chet el tashkilotlarning tavsiyalari) doimiy kuzatib borish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Bunda, zaruratga ko‘ra Komplayens xodimi monitoring yakunlari bo‘yicha Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar, amaldagi ichki normativ hujjatlarga o‘zgartirishlar yoki yangi ichki normativ hujjatlar hamda chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha rejalar loyihalarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Boshqaruv raisiga kiritadi.

8. Ommaviy axborot vositalarida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari buzilishi, shuningdek Jamiyatning kontragentlarining yoki ularning boshqaruv organlari a’zolarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari holatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi Komplayens xodimi Axborot xizmati (jamoatchilik bilan ishlash bo‘linmasi), Inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha mutaxassis, xo‘jalik ishlari bo‘yicha mutaxassis bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Monitoring natijasida Jamiyat xodimiga yoki kontragentiga aloqador korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida xabar aniqlanganda Komplayens xodimi Jamiyatning ichki normativ hujjatlariga muvofiq xizmat tekshiruvi o‘tkazish choralarini ko‘rishi mumkin.

9. Komplayens xodimi xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligini bir yilda bir marta tekshirib boradi.

Xodimlarning xabardorligi mazkur Uslubiyotga 1-ilovada keltirilgan xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligini tekshirish tizimiga muvofiq o‘tkazilib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tanlov asosda xodimlarning tekshiruvda ishtirokini aniqlash *(so‘rovda qatnashadigan xodimlarning minimal soni Jamiyatning turli tuzilmalaridan turli lavozimlarni egallagan 6 kishi);*

korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga muvofiq savollar ro‘yxatini tuzish *(keyslarni yechish bilan savollarning minimal soni 10 ta, test, ochiq savollar yoki boshqa shaklda tuzilishi mumkin);*

javob/yechimlarni taqdim qilish uchun tanlangan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;

natijalarni tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish talablarini tushunish va ularga rioya qilishdagi qiyinchiliklarni xodimlar bilan muhokama qilish..

10. O‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi axborot mazkur Uslubiyotga 2-ilovaga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi.

## 4-bob. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish

11. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.

12. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan funksiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan munosabatlarga nisbatan joriy etiladigan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.

13. Jamiyat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan nazorat predmetiga quyidagi xavfli jarayonlar kiritilishi mumkin:

xaridlar bo‘yicha faoliyat;

sovg‘alar, xizmat safarlari xarajatlari;

aksiya paketlari (ustav fondidagi ulushlari) Jamiyatga boshqaruvga berilgan tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlar;

moliyaviy mablag‘larning sarflanishi;

personalni boshqarish (kadrlarni tanlash, tayinlash, lavozimini oshirish, boshqa ishga o‘tkazish, mukofotlash va boshqa turdagi rag‘batlantirish va b.);

investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

subsidiya, grantlar, davlat kafolatlari va imtiyozlar olish;

raqamli axborot tizimlari;

manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini o‘rganish.

14. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boriladigan faoliyat jarayonlarining ko‘rsatilgan ro‘yxati har yili korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko‘ra Komplayens xodimi tomonidan ko‘rib chiqiladi va agar lozim bo‘lsa, korrupsiya nuqtayi nazaridan xavfli bo‘lgan yoki Jamiyat dolzarb bo‘lmagan jarayonlar nuqtai-nazaridan, Boshqaruv raisi bilan kelishilgan holda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.

15. Bir yoki bir nechta xavfli jarayonlarga nisbatan korrupsiyaga qarshi nazorat davriy oraliqda, lekin Jamiyatning korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat rejasiga muvofiq bir yilda kamida 1 (bir) marta amalga oshiriladi.

16. Korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi bir kalendar yiliga mo‘ljallab Komplayens xodimi tomonidan joriy yilning 15-yanvariga qadar shakllantiriladi va ushbu Uslubiyotning 13-15-bandlarida ko‘rsatilgan Jamiyatning barcha jarayonlarini, tekshiriladigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olishi kerak.

Shu bilan birga, tegishli chorakda tekshirilishi kerak bo‘lgan xavf-xatar jarayonlarining ketma-ketligi va taqsimlanish jarayoni Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ichki hujjatida ko‘rsatilgan, mehnat

resurslarini bilan ta'minlangan holda qonunbuzarliklar haqida xabar berish kanallari yoki boshqa usullar orqali Komplayens xodimi tomonidan belgilangan tartibda xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha jarayonlarning qoldiq xavf darajasiga qarab amalga oshiriladi.

17. Hisobot yili uchun Korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi shu yilning 31-yanvarga qadar Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi.

18. Jamiyatda rejadan tashqari korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan nazorat choralari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruvning tegishli qarori, Boshqaruv raisining tegishli buyrug'i mavjud bo'lganda;

Jamiyatda o'tkazilgan boshqa tekshiruvlar *(shu jumladan, rasmiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar)* davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanganda;

Jamiyatning aloqa kanallari orqali tegishli xabar olinganda.

19. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o'tkazilib, korrupsiyaviy xatti-harakatlarning indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Nazorat tadbirlari doirasida quyidagi tartib-taomillar ham amalga oshirilishi mumkin:

Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalar ma'lumotlarini tovarlarni qabul qilish va topshirish hujjatlari yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish hujjatlari bilan solishtirish;

tovarlarni haqiqiy sotib olish va ulardan foydalanish yoki xizmatlar ko'rsatish, ishlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni ularning miqdori va sifati bilan tegishli shartnoma va hujjatlarda belgilangan tartibda solishtirish;

kontragentni yoki nomzodni tekshirish natijalariga asoslangan xulosada aks ettirishning to'liqligini, tahlil qilish uchun taqdim etilgan va axborot manbasining mazmunini qayd qiluvchi hujjatlar tarkibidagi ma'lumotlarning to'liqligini tekshirish, shuningdek, kontragent yoki nomzodning shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlari va tekshiruvdan o'tgan shaxs ma'lumotlarining muvofiqligini tekshirish;

kontragent va Jamiyat o'rtasidagi shartnomani imzolovchilarning vakolatini tekshirish, taqdim etilgan hujjatlarning vakolatli shaxslarning imzolari bilan vizual ravishda mosligini solishtirish;

kontragentning rekvizitlarini va tegishli shartnoma bo'yicha summani buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish;

Jamiyat yoki kontragent xodimlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda tuzatish, o'chirish, soxtalashtirish belgilari yo'qligini tekshirish;

qonun hujjatlariga va Jamiyatning ichki normativ hujjatlariga muvofiq talab etiladigan ommaviy axborot manbalarida e'lonlarning mavjudligini tekshirish *(raqobatli usuldagi xarid qilish tartib-taomillarining e'lon qilinganligi to'g'risida ma'lumot va boshqalar);*

paydo bo‘layotgan masalalar bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot va izohlar olish uchun Jamiyat xodimlari bilan suhbat.

20. Nazorat tadbirlari yakunida ma’lumotnoma tuziladi, u kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga oladi va quyidagilarni nazarda tutadi:

**Kirish qismida:**

har bir vazifa uchun nazorat tadbirining boshlanish va tugallanish sanalari;

nazoratdan o‘tkazilgan vazifalar ro‘yxati;

nazoratdan o‘tkazilgan vazifalarni bajarishga mas’ul bo‘lgan bo‘limlar va shaxslar ro‘yxati;

hisobotni tuzish uchun mas’ul xodimning FISH.

**Tavsiflovchi qismida:**

nazoratdan o‘tkazilgan har bir vazifalar bo‘yicha tanlov amalga oshirilishi usuli va tanlash hajmi;

Jamiyatda korrupsiyaviy koidabuzilishlar va kamchiliklar, shu jumladan, kamchiliklarning paydo bo‘lishi yoki rivojlanishi sabablari va sharoitlari.

**Yakuniy qismida:**

nazorat o‘tkazilgan har bir vazifada korrupsiyaviy xavf-xatarlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa;

qonunchilikning buzilgan normalari, Jamiyatning ichki hujjatlari ko‘rsatilgan asosiy qoidabuzarliklar;

nazorat o‘tkazish vaqtida aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar.

21. Ma’lumotnomaga kiritilgan ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar, ulardan ko‘chirmalar yoki nusxalar ilova qilinishi kerak.

22. Ma’lumotnoma Boshqaruv raisiga taqdim etiladi hamda o‘tkazilgan nazorat to‘g‘risidagi ma’lumot mazkur Uslubiyotga 2-ilovaga muvofiq shaklda Jurnalga kiritiladi.

## 5-bob. Yakuniy qoidalar

23. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

24. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni bajarish, amalga oshirilgan ishlar haqida Komplayens xodimiga tegishli ma’lumotlar taqdim etilishi uchun Jamiyat tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari shaxsan javobgardir.

"UzAssets investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatida
korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va
nazorat qilish Uslubiyotiga
1-ilova

## "UzAssets investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablaridan xabardorligi MONITORINGI

| T/R | Tekshiruv yo'nalishi | Tekshiruv tadbirlari |
|---|---|---|
| 1. | Xodimlarga odob-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi talablarga rioya qilish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish, boshqa bo'linmalar tomonidan bunday treninglar o'tkazilishini monitoring qilish. | Tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'tkaziladigan treninglarning muntazamligi, ularning mazmuni, qatnashuvchi shaxslar, treninglarda berilayotgan ma'lumotlarning dolzarbligini nazorat qilish. |
| 2. | Xodimlarning korrupsiyaga qarshi talablarni bilishini tekshirish | Treninglar doirasida test yoki boshqa nazorat tadbirlarini o'tkazish va xodimlarning natijalarini tahlil qilish;<br>Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo'ygan holda tanishtirish;<br>Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki normativ hujjatlarni bilishini tanlov asosida tekshirish:<br>a) tekshiruvda qatnashish uchun xodimlarni tanlov asosida aniqlash (so'rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni 6 nafar);<br>b) ichki normativ hujjatlarda ko'rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar bo'yicha savollar ro'yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, test formatida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin);<br>v) tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;<br>g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablarni tushunish uchun muhokama qilish. |

"UzAssets investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotiga
2-ilova

**"UzAssets investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish**
**JURNALI**

| T/R | Monitoring/nazorat turi | Monitoring/nazorat davriyligi | Monitoring/nazorat o'tkazish sanasi | Kuzatuv tafsilotlari | Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to'g'irlash choralari | Mas'ul ijrochilar | To'g'irlash bo'yicha бўйича choralarning ijro muddati | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash | | | | | | | | |
| 1. | Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi va uning qonunchilik talablariga muvofiqligi monitoringi | Doimiy ravishda | | | | | | |
| Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash | | | | | | | | |
| 2. | OAV monitoringi | Doimiy ravishda | | | | | | |
| 3. | Xodimlarning korrupsiyaga qarshi talablardan xabardorligi monitoringi | Har yili | | | | | | |
| 4. | Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat | Har chorakda | | | | | | |
| 5. | Korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan nazorat | Har chorakda | | | | | | |